

MUAYYAN YASHASH JOYIGA EGA BO'LMAGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

IV Akademiyasi 309-guruh kursanti
Nurahmadov Shukurulla Shavkat o`g`li

Annotatsiya: Boshpana izlayotgan shaxs – bu xalqaro himoyani izlayotgan shaxslar uchun umumiy atama bo`lib hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda bu huquqiy atama qochoq maqomini taqdim etish to`g`risida murojaat qilgan, lekin o`z murojaati bo`yicha hali uzil-kesil qaror olmagan shaxs ma`nosini anglatadi. Pirovard natijada boshpana izlayotgan barcha shaxslar ham qochoq deb tan olinmaydi, ammo shunga qaramasdan qochoq shaxs uning murojaatini adolatli ko`rib chiqish tartibi tugallanmagunga qadar kelib chiqish mamlakatiga qaytarilmaydigan shaxsdir..

Kalit so`zlar: huquqbazarlik, viktimologik profilaktika, huquqshunos, choratadbir, prinsip, subyekt tavsifi, odam savdosi, ekstremizm, terrorizm, ommaviy madaniyat.

Abstract: Asylum seeker is a general term for persons seeking international protection. In some countries, this legal term refers to a person who has applied for refugee status but has not yet received a final decision on their application. Ultimately, not all asylum seekers are recognized as refugees, but a refugee is a person who cannot be returned to their country of origin until a fair hearing has been completed.

Key Words: offense, victimological prevention, jurist, measure, principle, subject description, human trafficking, extremism, terrorism, popular culture.

Аннотация: Литсо, ишущее убежища, – это общий термин для лиц, ищущих международной защиты. В некоторых странах этот юридический термин относится к человеку, который подал заявление о предоставлении статуса беженца, но еще не получил окончательного решения по своему заявлению. В конечном счете, не все лица, ищущие убежища, признаются беженцами, но беженес – это человек, которого нельзя вернуть в страну происхождения до завершения справедливого слушания.

Ключевые слова: правонарушение, виктимологическая профилактика, юрист, мера, принцип, характеристика субъекта, торговля людьми, экстремизм, терроризм, массовая культура.

Ortda qolgan bir asrda keng ko`lamli mintaviy va mahalliy hodisalar sodir bo`ldi. Dunyo xalqlari tomonidan 1999 yilda “Jeneva Konvensiyasini to`la va keng hajmda qo`llash” asosida Umumevropa boshpana tizimini yaratish to`g`risida qaror qabul qilingan edi. O’shandan buyon asliyatda va qayta ko`rib chiqilgan (“qayta ishlangan”)

variantlarda to‘rtta hal qiluvchi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Bu har bir hujjat 1951 yil Konvensiyada ko‘rib chiqilmaydigan sohalarda qochoqlar to‘g‘risidagi qonunchilik mazmunini to‘ldiradi. Tilga olingan hujjatlarda quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

- a) vaqtinchalik himoya;
- b) boshpana izlayotgan shaxslarni qabul qilish;
- s) xalqaro himoyadan foydalananidan shaxslar huquqqa ega bo‘lgan qochoq maqomi yoki “qo‘sishimcha himoya” shuningdek, huquq va maqom mezonlari;
- d) boshpana taqdim etish tartiblari standartlari.

Bundan tashqari “Dublin ” reglamentiga muvofiq, Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan qaysi davlat yoki boshqa ishtirok etuvchi mamlakat boshpana taqdim etish to‘g‘risidagi murojaatni ko‘rib chiqish uchun mas’uliyatga egaligi belgilanishi uchun ham mezonlar o‘rnatalgan. Tezkor qo‘llab-quvvatlashni ta’minalash uchun Yevropa Ittifoqining ikki agentligi: 2005 yilda – tashqi chegaralarning xavfsizligi bo‘yicha Yevropa ittifoqining Frontex agentligi va 2010 yilda – Boshpana taqdim etish bo‘yicha masalalari Yevropa idorasi tashkil etildi. 2007 yilda qabul qilingan Assosiy huquqlar xartiyasi Yevropa Ittifoqining ta’sis hujjatlari bilan teng maqomga

egaligi bilan ajralib turadi. Unga ko‘ra o‘limga hukm qilinish, qiyonoqqa solinishi yoki g‘ayriinsoniy yoxud muomala yoki jazolashning shuningdek qadr-qimmatni kamsitadigan boshqa shakllari holatida boshpana izlash va mamlakat tashqarisiga chiqarib yuborishdan himoya qilish qoidalari kiritilgan. Yevropa Ittifoqining Sudiga a’zo davlatlar tomonidan boshpana va har qanday ehtimol tutilgan buzilishlari bo‘yicha Yevropa Ittifoqining qarorlar qabul qilish to‘g‘risidagi hujjatlarini talqin etish yurisdiksiyasiga ega. Yevropa Ittifoqi Sudi Inson huquqlari asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi doirasida boshpana masalalarini ko‘rib chiqadigan, shuningdek yevropa Kengashining Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi qochoqlar to‘g‘risidagi xalqaro qonunchilikni yanada rivojlantirishga jiddiy ravishda ta’sir ko‘rsatmoqda.

Milliy konstitutsiyalarda boshpanaga bo‘lgan huquq: ko‘pchilik davlatlar konstitutsiyada boshpana olish huquqini tan oladi, lekin buni turlicha qiladi:

- Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida boshpana olish huquqi alohida shaxsga ana shu huquq berilishi bilan tan olinadi. Bunga quyidagi davlatlarning konstitutsiyalarini misol bo‘ladi: Angola, Bosniya va Gersegovina, Venesuyela, Gvineya, Germaniya, Indoneziya, Mali, Paragvay,

Portugaliya, Serbiya, Somali, Yugoslaviya Federativ Respublikasi, Xorvatiya, Chernogoriya.

- Boshqa holatlarda tegishli qoida davlatning majburiyati sifatida belgilanishi mumkin. Bunga quyidagi davlatlarning konstitutsiyalarini misol bo‘ladi: Ozarbayjon, Bolgariya, Vengriya, Gruziya, Kongo Demokratik Respublikasi, Sobiq

Yugoslavskaya, Makedoniya Respublikasi, Namibiya, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Chexiya Respublikalaridir.

• Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida boshpana olish huquqi tan olinadi, lekin bu “amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar”ga bog‘liq ravishda yoki xuddi shunga o‘xshagan ta’rif bilan qo‘llaniladi. Bu huquqshunoslarga boshpana olish huquqi mazmunini belgilash bo‘yicha diskretsiya vakolatlarini taqdim etish sifatida talqin etilishi mumkin. Bunday davlatlarga quyidagilar taalluqlidir: Albaniya, Afg‘oniston,

Burkina-Faso, Burundi, Sharqiy Timor, Iroq, Ispaniya, Italiya, Kabo-Verde,

Kolumbiya, Kongo Respublikasi, Meksika, Mozambik, Moldova, Polsha, Portugaliya, Ruanda, Ruminiya, Slovakiya Respublikasi, Sloveniya va boshqalar.

• Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida boshpana olish huquqi to‘g‘risidagi qoida bevosita kiritilmagan, ammo bu, masalan Andorra va Togodagidek Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qo‘llanilishi to‘g‘risidagi bayonoti orqali yoki Benindagi kabi inson huquqlari sohasidagi mintaqaviy majburiyatlarga havola qilish orqali bartaraf qilinadi.

Milliy huquqni himoya qilish muassasalari jahondagi 100 tadan ko‘proq mamlakatda mavjuddir. Ular davlatdan mustaqil ravishda ish ko‘rib, boshpana izlayotgan shaxslar va qochoqlarni himoya qilishga, shuningdek ular huquqlariga amal qilinishi monitoringini o‘tkazishga salmoqli hissa qo‘shishadi. Ular inson huquqlari bo‘yicha komissiyalar yoki ombudsmanlar shaklida faoliyat olib boradi. Bundan tashqari ushbu muassasalar inson huquqlari sohasida umumiylar qarashlarga ega bo‘lib, ayrim mamlakatlarda boshpana izlayotganlar va qochoqlar uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan maxsus mandatga ega komissiyalar yoki ombudsmanlar sifatida ish ko‘radi. Ularga kamsitish yoki qamoqda saqlash, ozchiliklar, bolalar va ayollar yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari masalalari bilan shug‘ullanadi. Milliy huquqni himoya qilish muassasalari shikoyatlarini tekshiradi va ularni odatda tavsiyalar yoki mediatsiyalar orqali tartibga solishga intilishadi. Bundan tashqari, ular inson huquqlari buzilishiga olib keladigan, shu jumladan boshpana izlayotgan shaxslar va qochoqlar tizimli muammolarini aniqlash hamda ana shu muammolarni bartaraf etish ustida ish olib boradi.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro qonunchilik har bir shaxsning yetarli turmush darajasiga ega bo‘lish huquqini tan oladi. O‘zlarini ta‘minlay olmaydigan boshpana izlovchilarga davlat yordamining taqdim yetilishi ham nazarda tutilidi. Shu bilan birgalikda ushbu zarur sharoitlar boshpana taqdim etishning adolatli va samarali tartiblarini zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar boshpana izlovchi shaxslarning oziq-ovqat, turar joy, tibbiy xizmatga asosiy ehtiyojlari qondirilmaydigan bo‘lsa, ular boshpana taqdim etish to‘g‘risidagi murojaat bilan shug‘ullanishni zarur tarzda davom ettirishlarini kutib bo‘lmaydi.

Davlatlar boshpana taqdim etishning shaxsiy tizimlari ma’nosida boshpana izlayotgan shaxslarni qabul qilishda turli yondashuvlarni qo’llaydi. Ayrimlari natura shaklida yordam taqdim etadi, boshqalari moliyaviy yordamni taklif etadi yoki yordam berishning turli shakllarini taklif etadi. Yordam ko‘rsatishda ham davlat ham nodavlat subektlari ishtirok etishlari, ijtimoiy va iqtisodiy ne’matlarning ko‘lami va hajmi farq qilishi mumkin. Ayrim holatlarda boshpana izlovchi shaxslarning yashash joyi va harakatlanish erkinligi muayyan joy, masalan, aniq munitsipalitet muayyan qabul marakazi bilan chegaralanadi. Ana shunday chegaralashlar qonun tomonidan ko‘zda tutilgan va huquqiy manfaatlarni himoya qilish uchun, masalan jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi yoki aholi salomatligi manfaatlarini o‘zida aks ettirshi lozim. Qabul qilish markazlari yopiq bo‘lmasligi kerak, chunki bu qamoqda ushlashga teng bo‘ladi. Boshpana izlovchilarning kelganlaridan keyin birinchi oylarda jamoaviy markazlarda yashashlari ma’lumotlar va tavsiyalarni samarali tarqatishga yordam berishi mumkin. Bundan keyingi bosqichlarda esa katta bo‘lmagan guruhlarda yoki shaxsiy uylarda yashash maqbulroq bo‘ladi.

Davlat boshpana tizimi davlat tomonidan boshpana izlayotgan shaxslar va qochoqlarga nisbatan ko‘rilayotgan choralar ni shakllantiradigan zarur resurslar va institutlar bilan birgalikda strategiyalar, qonunlar, siyosat va harakat rejalarini jamlanmasidan iboratdir, tegishli vositalar (qonunlar, siyosat va rejalar) ishlab chiqish jarayonida dasturamal bo‘lib xizmat qiladigan asosiy maqsadlar, vazifalar va kutilayotgan natijalar bayon etiladi. Qoida bo‘yicha strategiyalar ijro etuvchi organlar tomonidan ishlab chiqiladi, va ularda qochoqlar bilan bog‘liq vaziyatlarda mamlakatning javob choralarini “mustahkamlanadi”. Ayrim holatlarda parlamentlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish mumkin.

Harakat rejalarini amaliyotda amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Ularda aniq vaziyatlarda milliy va mahalliy darajada turli ijrochilar zimmasiga yuklanadigan aniq majburiyatlar va vazifalar bayon etiladi. Harakat rejalarini odatda davlat idoralari tomonidan ishlab chiqiladi va favqulodda vaziyatlarda javob berishda juda maqbul hisoblanadi. Boshpana to‘g‘risidagi qonunchilik: Qaysi yondashuv yaxshi ish beradi?

Boshpana to‘g‘risidagi qonunchilikni ishlab chiqishda bitta kompleks qonunni ishlab chiqish yoki mavjud qonunchilikka qator qo‘sishimchalar qabul qilish orqali o‘zgartirishlar kiritish lozimligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish muhimdir. Bu masalani siyosatni ishlab chiqish bosqichida ko‘rib chiqish maqbul, lekin parlament a’zolari har bir yondashuvning ijobiylari va salbiy jihatlarini bilishlari kerak:

- Bitta kompleks hujjat bo‘sh joylar paydo bo‘lish ehtimolini kamaytiradi va siyosatni ishlab chiqishni soddalashtiriladi, chunki barcha masalalar markazlashtirilgan holda ko‘rib chiqiladi.

- Qator qonunlarga o‘zgartirishlar kiritish orqali islohotlarni nomarkazlashtirish turli idoralari tomonidan to‘plangan tajribadan yaxshiroq foydalanish imkoniyatini

beradi va siyosiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni yengillashtirishi mumkin. Biroq bu muvofiqlashtirish muammolarini keltirib chiqarishi va amalga oshirish jarayonida bospana izlovchilar va qochoqlar uchun pirovard natijalardan e'tiborni chalg'itishi mumkin.

Asosiy prinsiplar va institutsional tuzilmalar umumiyligida qonunda belgilanadigan, shuningdek bospana izlovchilar va qochoqlar uchun eng yaxshi natijalarni ta'minlash maqsadida amaldagi qonunchilikda zarur maqsadli tuzatishlar qabul qilinadigan aralash yondashuv eng muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Masalan, qochoqlarni qabul qilishni ta'minlash uchun mas'uliyatni taqsimlash bospana to'g'risidagi qonunda aks ettiriligan, maxsus qonunchilikda esa qochoqlarni qabul qilish to'g'risida mas'ul organlarning aniq vazifalari ancha batafsilroq bayon etilishi mumkin.

Murakkabliklarga yo'l qo'ymaslik va zamonaviy muammolarni hal etish imkoniyatini ta'minlash uchun bospana to'g'risidagi qonunchilikni muntazam qayta ko'rib chiqish va yangilash muhimdir.

. Davlatlar amaliyoti va mintaqaviy amaliyot bospana izlovchilarning mehnat qilish imkoniyati, Yevropa Ittifoqining Bospana izlovchilar uchun qabul shartlari to'g'risidagi qayta ko'rib chiqilgan direktivasiga (2018 yil) muvofiq, ushbu shaxslar bospana taqdim etish to'g'risida murojaat qilganlaridan so'ng mehnat qilish uchun ruxsat olishni kutishning eng ko'p muddati o'rnatiladi. Bu muddat agar murojaat bo'yicha qaror qabul qilinmagan bo'lsa hamda ushlanib qolish arizachining aybi tufayli sodir etilmaganligi sharti bilan to'qqiz oyni tashkil etadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo ayrim davlatlar bospana izlovchilarga mehnat bozoriga kirish uchun ancha ertaroq muddatlarni taqdim etishadi. Masalan, Shvetsiyada agar bospana izlovchilar o'z shaxslarini asl hujjalarni yoki ularning nusxalarini yordamida tasdiqlasalar, darhol ishga kirishishlari mumkin. Maltada bospana izlovchilar qamoqda saqlanmayotgan bo'lsa, darhol ishlay boshlashlari mumkin. Gretsiyada bu ro'yxatga olingandan keyin, Portugaliyada murojaat maqbul deb tan olingan zahoti, odatda bir oydan keyin, Italiyada ikki oydan keyin, Avstriya, Germaniyada uch oydan keyin, Daniya, Ispaniya, Polsha, Finlandiyada olti oydan keyin ishlashlari mumkin. Amaliyotda bunday imkoniyat til to'siqlari, iqtisodiyotning faqat muayyan

sektorlarida ishlashga nisbatan talablar, yilda chegaralangan haftalar davomida va mahalliy ishchilar tomonidan egallanmagan ish joylarida yoxud ta'lim yoki kasbiy tajribani tasdiqlash murakkabliklari tufayli chegaralanishi mumkin. Lotin Amerikasi va Markaziy Amerikada Argentina, Boliviya, Braziliya, Nikarauga, Peru, Urugvay, Chili, Yekvadorda bospana izlovchi shaxslarga darhol mehnat bozoriga kirish imkoniyati taqdim etiladi. Kosta-Rikada bospana izlayotgan shaxslarga agar ularning murojaati bo'yicha qaror uch oy o'tgach ham qabul qilinmagan bo'lsa ham ishlashga ruxsat beriladi. Argentina, Braziliya va Chilida bospana izlovchilarning qarindoshlari ham ishslash huquqiga egalar. Bospana izlayotgan shaxslarni ro'yxatga olish va

aynanlashtirish boshpana izlayotganlarni ro‘yxatga olish va ularni shaxsiy hujjatlar bilan ta’minalash himoya qilishning muhim vositalari hisoblanadi. Ro‘yxatga olish va shaxsni tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etish chiqarib yuborishdan himoya qilishni ta’minalash imkonini beradi. Ro‘yxatga olish boshqa asosiy huquqlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta’minalash, shuningdek alohida ehtiyojga muhtoj shaxslarni aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari bu uzoq muddatli qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan ko‘chirish uchun zarurdir. Yuqorida bayon etilgan hisobga olingan qonunchilik tartibida boshpana taqdim etish to‘g‘risidagi murojaatlarni qabul qiladigan va ro‘yxatga oladigan organni aniqlab olish lozim. Bu organ o‘z majburiyatlariga nisbatan aniq yo‘riqnomalarga ega bo‘lishlari va uning vakillari faqat yerdagi chegaralardagiga emas, shuningdek ayeroportlar, dengizlar va temir yo‘l vokzallari, shuningdek turli departamentlar va mahalliy hokimiyat muassasalarida ham bo‘lishlari kerak. Boshpana izlayotgan shaxslarga shaxsini tasdiqlaydigan, shuningdek ular boshpana izlayotganliga asos bo‘ladigan hujjat berish lozim. Bu o‘zlarining murojaati bo‘yicha uzilkesil qaror qabul qilinguncha mamlakatda qonuniy turishlarining tasdig‘i bo‘ladi. Ayollar erkak qarindoshlaridan qat’i nazar o‘z nomiga ana shunday hujjatlar olish uchun teng huquqqa egalar. Bolalarni, kuzatib kelinmayotgan, oilasidan ajralgan bolalarni ro‘yxatga olish va ularga maqomi ko‘rsatilgan shaxsiy hujjatlarni taqdim etish ularni himoya qilish uchun juda muhimdir. Boshpana izlovchi shaxslarning tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati har bir odam kabi boshpana izlovchi shaxslar Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida ko‘zda tutilgan “jismoniy va ruhiy salomatlikning erishib bo‘linmaydigan eng oliy darajasi” huquqiga egadir. Shuning uchun davlatlar hech bo‘limganda boshpana izlovchilarga ham kelgan paytlarida, shuningdek boshpana taqdim etish butun tartibi davomida bepul birlamchi va shoshilinch tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati ta’minalashlari kerak. Davlat ana shu xizmatlarni taqdim etishda qiyinchiliklarga duch keladigan holatlarda xalqaro hamjamiyatdan yordam so‘rashi mumkin. Bu ko‘p holatlarda ana shu qabul qilayotgan mamlakat fuqarolariga ham taalluqli bo‘lishi mumkin.

Boshpana izlovchi shaxslarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatini taqdim etish ana shunday boshpana izlovchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun harajatlarni kamaytirishga yordam berishi va mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirishi mumkin. Maqomni belgilash jarayoni vaqtida ishlashga ruxsat berish yoki hech bo‘limganda mustaqil ibilan band bo‘lish boshpana izlovchilarni ijtimoiy va iqtisodiy yakkalab qo‘yishi darajasini kamaytirish, shuningdek malakani yo‘qotish, uzoq muddat davomidagi bekorchilik oqibatida o‘zini past baholash va ruhiy salomatligini yo‘qotish muammosini qisman bartaraf etish imkonini beradi. Agar bunday shaxslarga qabul qiluvchi mamlakatda qolishga ruxsat berilsa bu ularning ekspuluuatatsiya qilinishiga nisbatan nochorligini kamaytirish va kelajagini yaxshilash shuningdek qaytish holatida

muvaqqiyatli integratsiyalash imkoniyatini beradi. Davlatlar amaliyoti va mintaqaviy amaliyot boshpana izlovchilarning mehnat qilish imkoniyati, Yevropa Ittifoqining Boshpana izlovchilar uchun qabul shartlari to‘g‘risidagi qayta ko‘rib chiqilgan direktivasiga (2021 yil) muvofiq, ushbu shaxslar boshpana taqdim etish to‘g‘risida murojaat qilganlaridan so‘ng mehnat qilish uchun ruxsat olishni kutishning eng ko‘p muddati o‘rnataladi. Bu muddat agar murojaat bo‘yicha qaror qabul qilinmagan bo‘lsa hamda ushlanib qolish arizachining aybi tufayli sodir etilmaganligi sharti bilan to‘qqiz oyni tashkil etadi. Yevropa Ittifoqiga a’zo ayrim davlatlar boshpana izlovchilarga mehnat bozoriga kirish uchun ancha ertaroq muddatlarni taqdim etishadi. Masalan, Shvetsiyada agar boshpana izlovchilar o‘z shaxslarini asl hujjatlar yoki ularning nusxalari yordamida tasdiqlasalar, darhol ishga kirishishlari mumkin. Maltada boshpana izlovchilar qamoqda saqlanmayotgan bo‘lsa, darhol ishlay boshlashlari mumkin. Gretsiyada bu ro‘yxatga olingandan keyin, Portugaliyada murojaat maqbul deb tan olingen zahoti, odatda bir oydan keyin, Italiyada ikki oydan keyin, Avstriya, Germaniyada uch oydan keyin, Daniya, Ispaniya, Polsha, Finlandiyada olti oydan keyin ishlashlari mumkin. Amaliyotda bunday imkoniyat til to‘sqliari, iqtisodiyotning faqat muayyan sektorlarida ishlashga nisbatan talablar, yilda chegaralangan haftalar davomida va mahalliy ishchilar tomonidan egallanmagan ish joylarida yoxud ta’lim yoki kasbiy tajribani tasdiqlash murakkabliklari tufayli chegaralanishi mumkin. Lotin Amerikasi va Markaziy Amerikada Argentina, Boliviya, Braziliya, Nikarauga, Peru, Urugvay, Chili, ekvadorda boshpana izlovchi shaxslarga darhol mehnat bozoriga kirish imkoniyati taqdim etiladi. Kosta-Rikada boshpana izlayotgan shaxslarga agar ularning murojaati bo‘yicha qaror uch oy o‘tgach ham qabul qilinmagan bo‘lsa ham ishlashga ruxsat beriladi. Argentina, Braziliya va Chilida boshpana izlovchilarning qarindoshlari ham ishslash huquqiga egalar. Shveysariyada boshpana izlayotgan shaxslar ularning murojaati bo‘yicha qaror uch oy o‘tgach qabul qilinmagan bo‘lsa, ishga ruxsat olish uchun murojaat qilishlari mumkin. Biroq ular mahalliy ish kuchi o‘rtasida nomzodlar topilmagan ish joylarigagina da’vogar bo‘lishlari mumkin. Koreya Respublikasida boshpana taqdim etish to‘g‘risidagi murojaat berilgandan olti oy o‘gandan keyin yollanib ishslash mumkin, lekin ular immigratsiya xizmatiga mehnat shartnomasini taqdim etishlari va mehnat qilishga ruxsat so‘rashlari talab etiladi. Janubiy Afrikada Qochoqlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq (1998 yil) qochoq deb tan olingen shaxslarga mehnat qilish huquqi beriladi (holbuki bu qonunda boshpana izlovchilar bevosita tilga olinmaydi). Shunga qaramasdan, sudlar, inson qadr-qimmati konstitutsiyaviy huquqiga asoslangan holda boshpana izlayotgan shaxslar boshpana taqdim etish to‘g‘risida murojaat qilganliklaridan keyin ishlashlari, shu jumladan o‘zlarini band qilish asosida ishlashlari mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qildilar. AQSHda boshpana izlayotgan shaxslar boshpana taqdim etish to‘g‘risida murojaat

etganlaridan keyin 180 kun o'tgach ishlashga ruxsat olish huquqiga ega bo'ladilar, ammo ruxsat olish ancha cho'zilib ketishi mumkin.

Katta resurslarga, turli ma'muriy va huquqiy an'analarga ega mamlakatlar va (yoki) odamlar katta miqdorda kirib kelayotgan mamlakatlarda ishlab chiqilgan shartlarga bog'liq ravishdagi mexanizmlar boshqa mamlakatlar uchun dolzarb bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ushbu bobda ko'rib chiqilgan masalalarning ko'pchiligi faqat ayrim yurisdiksiyalarda qo'llanilishi mumkin. Boshpana taqdim etish tartiblarida eng kam tartib kafolatlari va inson huquqlari sohasidagi shartnomaviy majburiyatlarni butun jahonda aks ettiradigan tegishli huquqiy tartiblar, prinsiplari va ma'muriy huquq tizimlari qo'llanilishi kerak. Ushbu bobda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- Boshpana taqdim etishning adolatli va samarali tartiblari;

- eng kam tartib kafolatlari;

- Ma'lumotlarni himoya qilish prinsiplari va standartlariga bog'liq ravishda mahfiylikni ta'minlash;

- Murojaatlarni, shu jumladan chegaralar va ayeroportlarda ro'yhatga olish va ko'rib chiqish;

- Ayrim mamlakatlarda ana shu bosqichda qo'llaniladigan boshpana taqdim etish to'g'risidagi murojaatlarning ko'rib chiqish uchun mas'uliyatni taqsimlash to'g'risidagi shartnomalar, shu jumladan "birinchi boshpana mamlakati", "xavfsiz uchinchi mamlakat" qo'llanilishi mumkinligi to'g'risidagi qarorlar;

- Birinchi instansiyada suhbat o'tkazish va qaror qabul qilish jarayoni, shu jumladan ishonarlikni baholash;

- Tezlashtirilgan tartiblar, shu jumladan ularni murojaatlar aniq asoslanmagan holatda qo'llash;

- Takroran murojaat, murojaatdan voz kechish yoki murojaatni qaytarib olish;

- Apellyatsiyalar va huquqiy himoyaning samarali vositalari;

- Boshpana taqdim etish tartibida alohida ehtiyojga ega shaxslar, shu jumladan bolalar, kuzatib kelinmayotgan va oilasidan ajralgan bolalar, ayollar, oilalar, zo'rash va qiynoqlarni boshidan o'tkazganlar, ruhiy jarohatlanganlar, lesbiyankalar, geylar, diseksuallar, transgender shaxslar, interseksuallar va nogironligi bo'lgan shaxslar.

AQSH hukumati ma'lumotlariga ko'ra, Vashington shtatida 12 mingga yaqin uysiz odam bor. Ular orasida ingliz tilini bilmaydiganlar va muhojirlar ko'pchilikni tashkil yetadi. Musulmonlar guruhi bunday toifadagi insonlarga ham ingliz tilini o'rgatish, ham uy-joy topib berish xizmatlarini ko'rsatishda yordam qilmoqda. Guruhning maqsadi uysiz va daromadi kam odamlarni uy-joy bilan ta'minlash, ularni mustaqil hayot kechirishga o'rgatish. Tashkilot vakillari bir qator Afrika tillarini, xususan, arab va urduchanini biladi.

Direktor Rizvan Rizvining so‘zlariga ko‘ra, maqsad odamlarga nafaqat moddiy yordam berish, balki hayotga qaytishlariga ko‘maklashish hamdir. Yefiopiyalik qochqin ayollar vaqtinchalik boshpanada yashayapti. Ish topish va boshqa malakalarini egallash bo‘yicha ham yordam olyapti.

“Ba’zilar bir necha oy, ba’zilar ko‘proq, boshqalar bir yildan ortiq yordamga muhtoj bo‘ladi. Ba’zi holatlar esa murakkab, shu bois har bir mijoz ishi bo‘yicha maxsus xodimlar biriktiriladi. Bu xodim ular bilan ishlaydi, uy topishiga, bolalari maktabga borishiga yordam beradi va ular o‘zgarishlar haqida bu xodimga ma’lumot berib turadi”, - deydi tashkilot rahbari. 2021 yil Musulmon Uy-joy xizmatlari 1000 dan ortiq odam va oilalarga uy va ish topishda yordam berdi.

Keksa yoshdagi uysizlar populyatsiyasidagi tadqiqotlar yoshi tasnifida turlicha. Uysizlikni kuzatib boradigan tajribalar, ayniqsa, keksa yoshdagi aholi, odatda keksa yoshdagi aholi uchun ishlatilganidan ko‘ra yoshi chegarasini talab qiladi. Keksa yoshdagi uysizlar deb hisoblanadigan ma’lum bir yosh tadqiqotlarda turlicha, ammo 50 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan keksa uysizlar katta xavf ostida ekanligi to‘g‘risida umumiyligi kelishuv mavjud. 50 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lganlar katta xavfga duch kelmoqdalar, chunki ular mehnatga layoqatli yosh va hukumat xavfsizligi talablariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Ushbu yosh guruhi odatda 50 yoshdan kichik va 65 yoshdan katta bo‘lganlarga qaraganda yomon jismoniy sog‘liq, yomon ovqatlanish va og‘ir yashash sharoitlarini boshdan kechiradi.

Kaliforniya universiteti olimlari o‘rganishlarini 350 dan ortiq ishtirokchilar kuzatib bordi va aniqlashdiki Oklendda 2019 yildan beri ko‘pchilik kam maoshli kam mahoratli ishlarda ishlagan. Ularning 80% Afroamerikaliklar edi. Uy-joysiz qolish xavfi katta bo‘lgan, chunki ular daromadlarining 50% dan ko‘pini ijara uchun sarflashgan. Ko‘pchilik kasal edi va shuning uchun ko‘proq dori-darmonlarga sarflashdi. Bir paytlar uysiz bo‘lib, ular boshqa odamlar singari sabablarga ko‘ra umumiyligi kutganidan to‘rt-besh baravar ko‘p o‘lishdi - yurak kasalligi va boshqalardan aziyat chekishdi.

2021 yilgi hisobot bo‘yicha Avstraliya hukumati 2020 yildan beri umumiyligi uysizlar 3 foizga, 55 yoshdan oshganlar uchun esa 14 foizga o‘sganligini aniqladilar. Va shunga qaramay Avstraliya keng qamrovli ijtimoiy xavfsizlik tarmog‘iga ega. Asosiy sabablar moliyaviy qiyinchiliklar (22%) Uydagi va oiladagi zo‘ravonlik (15%) Uy-joy inqirozi (14%).

Uy va uysiz yashash sharoitlari o‘rtasidagi farqlar keksa yoshdagi aholining umr ko‘rish davomiyligi uchun muhimdir. Uysizlar sharoitida 50 yosh va undan katta yoshdagilar uchun 70 yoshli uydagilarga o‘xhash sog‘liq sharoitlariga o‘xhash bo‘lishi odatiy holdir. Uysiz qolish odamning umr ko‘rish muddatini keskin qisqartiradigan omil ekanligi aniqlandi. Erta o‘lim ko‘pincha uysizlar holati og‘irlashgan o‘tkir va surunkali tibbiy holatlarning kombinatsiyasi natijasidir.

Kasallikning og‘irligi shoshilinch tibbiy yordamni talab qilmaguncha, keksa uysiz aholining sog‘lig‘iga ko‘pincha e’tibor berilmaydi. Iqtisodiy omillar keksalar sonining ko‘payishi uchun uysizlikka yo‘l ochadi. Keksa uysizlar yoshi bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, masalan, sog‘liqni saqlash xizmatlari, dori-darmon va tibbiy asbob-uskunalar olish uchun doimiy joy yo‘qligi va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun // 2014
2. “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori // 2019
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay'atining kengaytirilgan yig‘ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi // 2021
4. Aripova, A. X. (2021). Nutq mohiyatini tashkil etuvchi muhim vosita. Scientific progress, 1(6).